

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH JARAYONLARI RIVOJLANISHI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Raximova Durdona Ravshanbekovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari rivojlanishi psixologik xususiyatlari o'rganildi. Bilish jarayonlarini rivojlantirish muammosi o'qituvchilar va psixologlarning turli xil asarlarida ko'rib chiqildi. Kognitiv faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning yangi bilim, ko'nikma, ichki qat'iyat va ma'lum bilimlarni to'plash uchun turli xil harakat usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo'lgan qiziqishini aks ettirishi aniqlandi.

Kalit so'zlari: Maktabgacha yosh davri, bilish jarayonlari, kognitiv faoliyat, tafakkur, nutq, diqqat, xotira, idrok, hayol, sezgi, ta'lim jarayoni.

Аннотация: В данной статье изучены психологические особенности развития познавательных процессов детей дошкольного возраста. Проблема развития познавательных процессов рассматривалась в различных работах педагогов и психологов. Установлено, что познавательная деятельность отражает интерес дошкольников к новым знаниям, умениям, внутреннюю целеустремленность и потребность использовать разные способы действия для сбора определенных знаний.

Ключевые слова: Дошкольный возраст, познавательные процессы, познавательная деятельность, мышление, речь, внимание, память, восприятие, воображение, интуиция, учебный процесс.

Abstract: In this article, the psychological features of the development of cognitive processes of preschool children were studied. The problem of the development of cognitive processes was considered in various works of teachers and psychologists. It was found that cognitive activity reflects preschool children's interest in new knowledge, skills, internal determination and the need to use different methods of action to collect certain knowledge.

Key words: Preschool age, cognitive processes, cognitive activity, thinking, speech, attention, memory, perception, imagination, intuition, educational process.

Bugungi kunda ijtimoiy adolatni o'rnatish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Har bir davlat o'z fuqarosining har tomonlama o'qimishli, ongli, tarbiyali bo'lishini istaydi. Bunda yosh avlodni ta'lim olishiga va madaniyatni shakllantirish masalalariga katta e'tibor qaratadi. Jumladan, Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan va Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" qonun bunga yorqin misol bo'la oladi. Ushbu Qonunning maqsadi maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori [2] tasdiqlandi. Ushbu qarorda maktabgacha ta’lim sohasida davlat siyosatini to’liq amalga oshirishga to’qinlik qilayotgan sabablar ko’rsatilgan. Zamonaviy maktabgacha ta’lim uchun bolalarning bilim faoliyati va mustaqilligini rivojlantirish nafaqat zarur o’quv natijasi, balki bilimlarni e’tiqodga aylantirish uchun shartdir. Ta’lim materiallari mazmunining nazariy darajasini ko’tarish va maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish eng ustuvor vazifalardan iboratdir.

Maktabgacha yosh davri - bu intensiv va ehtiyotkorlik bilan parvarish qilishni talab qiladigan davr hisoblanadi. Inson rivojlanishidagi tadqiqotning asosiy yo’nalishlaridan biri bu kognitiv rivojlanishdir. Kognitiv rivojlanish tufayli bolalar so’z bilish, dunyoni tanib olishi, tushunish, o’rganish, o’rganilgan narsalarni eslab qolish, muammolarni hal qilish, idrok etishda samarali tuzilmalar ega bo’ladi. Kognitiv jarayonlarni rivojlanishi maktabgacha yosh davridagi bolalarning ijobiy ijtimoiy ko’nikmalarini shakllantirish uchun muhim davr bo’lib xizmat qiladi. Shu sababdan olingan ko’nikmalar bolani keyingi hayotda yanada muvaffaqiyatli shaxsga aylantirishi mumkin. Bu davrda sog’lom kognitiv va ijtimoiy rivojlanishni qo’llab-quvvatlaydi. Bolaning kelajakdagi hayotiga moslashish darajasi va muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli, bolalarning kognitiv rivojlanish xususiyatlari va ijtimoiy qobiliyatlari o’rtasidagi bog’liqlik o’rganiladi.

Kognitiv faoliyat shaxsiyatning ijtimoiy ahamiyatli fazilati bo’lib, turli xil faoliyat turlarida maktabgacha yoshdagi bolalar orasida shakllanadi. Kognitiv faoliyat katta maktabgacha yoshdagi bolalarning yangi bilim, ko’nikma, ichki qat’iyat va ma’lum bilimlarni to’plash uchun turli xil harakat usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo’lgan qiziqishini aks ettiradi. Kognitiv jarayonlar - dunyo ob’ektlari va hodisalari haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lishga yordam beradi. Bilish jarayonlarini rivojlantirish muammosi o’qituvchilar va psixologlarning turli xil asarlarida ko’rib chiqilgan. Y.A. Komenskiy, K.D. Ushinskiy, D. Lok, Jan-Jak Russo kognitiv jarayonlarni maktabgacha yoshdagi bolalarning o’rganishga bo’lgan tabiiy istagi sifatida belgilagan. Bilish jarayonlarini K.D.Ushinskiy ham o’rgangan. U bunday deb yozadi: “O’quvchilar bilan suhbatda doimo ikki maqsad nazarda tutilishi lozim. Birinchi maqsad rasmiy bo’lib, maktabgacha yoshdagi o’quvchining aqliy qobiliyatini uning kuzatuvchanligini, xotirasi, hayoli, fantaziyasi va fahm-farosatini rivojlantirishdan iboratdir. Ikkinchi maqsad maktabgacha yoshdagi o’quvchiga biron-bir ma’lumot beribgina qolmay, balki yana kitoblardangina emas uni qurshab turgan predmetlardan, hayotiy hodisalardan, o’z qalbining tarixidan ham foydali bilimlar chiqarib oladigan vosita ham berish kerakligini doim yodda tutish

lozim. Hamma joydan foydali ozuqa topib oladigan shunday aqliy kuchi bor odam umr bo'yi o'qib-o'rganadigan bo'lib, bu, albatta, har qanday ta'limining eng asosiy vazifalaridan birini tashkil etadi" [4].

O'z davrining mashxur olimi J.Piaje bolaning bilish faoliyati mexanizmlarini o'rgangan. U intellekt shakllanishini barcha boshqa psixik jarayonlar bog'liq bo'lgan bolaning psixik rivojlanishini markaziy chizig'i sifatida ko'rib chiqqan. J.Piaje ishlarida tadqiq etilgan asosiy masalalar bola tafakurining o'ziga xos xususiyatlari bolada intellektni kelib chiqishi va rivojlanishi fundamental jismoniy hamda matematik tasavvur va tushunchalarni shakllanish usullari va yo'llari obyekt, makon, vaqt, sabab, tasodif kabilar idrok, xotira, tasavvur, o'yin, taqlid, nutq rivojlanishi va bilish jarayonida ularning vazifasi kabilarni o'rgangan. J.Piaje tadqiqotlari bolaning tafakkuri va nutqi hamda uning mantiqi va dunyoqarashi haqidagi ta'limotini rivojlanishida butun davrni tashkil qilgan. [3].

O'zbekistonlik psixologlar ham maktabgacha yosh davridagi bolalar bilish jarayonlari jumladan bog'cha yoshidagi bolalar tafakkuri o'rganilgan. E.Z.Usmanova rahbarligida B.B.Nurullayeva tomonidan «Maktabgacha yoshdagi bolalarni tafakkurini modellashtirish faoliyatining tengqurlar bilan muloqotda rivojlanishi» mavzusida ilmiy tadqiqot olib borilgan. B.B.Nurullayevaning tadqiqotida aniqlanishicha, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurning modellashtiruvchi faoliyati bu yosh davri uchun xos bolgan faoliyat bo'lib, unda bolalarning intellektual imkoniyatlari to'liq namoyon bo'ladi. Bu yosh davrida tengdoshlari bilan muloqot tafakkurning modellashtiruvchi faoliyatini o'zlashtirishning asosiy shartidir. Modellashtirish vazifalarini birgalikda hal qilish tashqi predmetli faoliyatning ichki rejaga o'tishiga imkon tug'diradi. Bola tengdoshini modellashtirishga o'rgatib, ushbu faoliyatni egallashning sifat jihatidan yangi darajasiga o'tadi, diadada o'zaro ta'sir qilish sheriklarning o'zaro rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. [3].

Kognitiv faoliyat katta maktabgacha yoshdagi bolalarning yangi bilim, ko'nikma, ichki qat'iyat va ma'lum bilimlarni to'plash va kengaytirish uchun turli xil harakat usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo'lgan qiziqishini aks ettiradi. G.I. Shchukina ham bilish jarayonlarini o'rganib quyidagi fikrlarni izohlab o'tadi. "Bilish jarayonlari bilim olishga intilishning doimiy namoyon bo'lishi bilan yuzaga keladi. Shaxs darajasida kognitiv faoliyatni shakllantirish muammosi asosan kognitiv faoliyatning motivatsiyasini va maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim qiziqishlarini shakllantirish usullarini ko'rib chiqish bilan bog'liqdir" [5].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning

rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o'yinchoqlar, rangli kiyimlar, rangli halqalar, qutichalar va shu singari o'yinchoqlar berish maqsadga muvofiqdir.

Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko'rgazmali, obrazli bolishi bilan xarakterlidir. Bolada ko'proq ixtiyorsiz esda qoldirish va ixtiyorsiz esga tushirish ustunlik qiladi. Bola so'zlarni hech qanday ma'nosiz takrorlayveradi. Ammo keyinchalik, kattalarning ta'sirida, ixtiyoriy esda qoldirish ham asta-sekin rivojlana boradi. Bola ravshan va emotsional rang-barang materialni oson esda qoldiradi. Bog'cha yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Masalan, bola juda berilib ertak eshitayotgan bolsa ham, xonaga birov kirib qolsa, uning diqqati ixtiyorsiz shu ertakdan chalg'iydi. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar. Bog'cha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi, ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

2. O'zbekiston Respublikasi 2016 yil 29-dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2707-sonli Qarori / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy, 31.07.2018 yil, 06/18/5483/1594-son; 01.01.2020 yil, 07/20/4555/4257-son.

3. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. – Toshkent: « O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 600 b.

4. Ушинский К.Д. Изб. пед. Соч.: 2 томлик, 2-том. – М.: 1974. – Б. 27-28.

5. Щукина Г.И. Усиление когнитивной активности в процессе образования. –

М., Образование, 2005 год.